



“TASDIQLAYMAN”  
O‘zbekiston Respublikasi  
Suv xo‘jaligi vaziri

\_\_\_\_\_ Sh.Xamrayev  
2026-yil 27-aprel

**Sel oqimlari va toshqinlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar  
yuzaga kelganda ularni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-  
tadbirlardan aholini tezkor xabardor qilish to‘g‘risida**

**REGLAMENT**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Reglament O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan (keyingi o‘rinlarda – Reglament) davlat organlari va tashkilotlari, jismoniy va yuridik shaxslarni sel oqimlari va toshqinlar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlar (keyingi o‘rinlarda – FV) yuzaga kelganda ularni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida aholini tezkor, ishonchli va tartibli tarzda xabardor qilishni ta‘minlash tartibini belgilaydi.

2. Reglament quyidagi asosiy maqsadlarni belgilaydi:

**a)** sel oqimlari va toshqin xavfini erta aniqlash va axborotni muvofiqlashtirilgan holda etkazish;

**b)** FV haqida aholini ogohlantirishning yagona tartibi va muddatlarini joriy etish;

**v)** vakolatli organlar o‘rtasida aniq vazifalarni taqsimlash;

**g)** aholi tomonidan xavfsiz xatti-harakat ko‘rsatmalarining o‘z vaqtida qabul qilinishini ta‘minlash.

3. Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**Sel** – tog‘ vodiylari, soylar va jarlardan oqib keladigan, katta vayrongarchilik kuchiga ega bo‘lgan qisqa muddatli loyqa yoki loyqatosh aralash kuchli suv oqimi. Qorlarning jadal erishi, kuchli jala yogishi natijasida tog‘lardan boshlanadigan kichik daryo va soylar havzalarida sodir bo‘ladi;

**Toshqin** – daryo, ko‘l yoki dengizdagi suv sathining ko‘tarilishi natijasida atrofdagi quruqlik, yaylov va aholi punktlarini suv bosishi

hodisasidir. Bu tabiiy ofat qor va muzliklarning tez erishi, kuchli yomg'irlar yoki to'g'onlarning buzilishi sababli yuzaga keladi. Toshqin vaqtida suv sathi tez ko'tariladi va pasayadi;

**Tezkor xabardor qilish** – favqulodda vaziyatlar xavfi yoki boshlanishi haqida aholini minimal vaqt ichida (belgilangan muddatlarda) turli aloqa kanallari orqali ogohlantirish mexanizmi;

**Ogohlantirish darajasi** – mavjud xavfning intensivligi va shoshilinch choralar ko'rish zaruriyatiga qarab belgilanadigan uch bosqichli xabardorlik tizimi: «DIQQAT», «XAVF» va «FAVQULODDA HOLAT»;

**Axborot kanali** – aholiga ogohlantirishni yetkazuvchi texnik vosita yoki tarmoq: SMS, televideniye, radio, sirenalari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar.

## 2-bob. Qo'llanish sohasi

4. Ushbu Reglament O'zbekiston Respublikasi hududida sel oqimlari va toshqin xavfi mavjud barcha hududlarga, jumladan:

**a)** tog' va tog' oldi viloyatlariga (Namangan, Andijon, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy, Jizzax viloyatlarining tog'li tumanlari);

**b)** yirik daryolar havzalari atrofidagi tekislik hududlarga;

**v)** sug'orish inshootlari (to'g'onlar, kanallar, suv omborlari) yaqinidagi aholi yashaydigan zonalarga;

**g)** tarixan sel va toshqin ro'y berib keladigan xavf zonalariga nisbatan qo'llaniladi.

5. Reglament barcha Suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi.

## 3-bob. Vakolatli tuzilmalar va ularning vazifalari

6. Favqulodda holatlar haqida aholini xabardor qilish jarayonida quyidagi organlar ishtirok etadi va belgilangan vazifalarga ega:

7. Suv xo'jaligi vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) ushbu Reglament doirasida koordinator organ sifatida faoliyat yuritadi.

**Vazirlikning asosiy vazifalari:**

**a)** gidrologik monitoring ma'lumotlarini tahlil qilish va sel/toshqin xavfini erta aniqlash;

**b)** havza boshqarmalaridan olingan ma'lumotlar asosida ogohlantirish darajasini belgilash;

**v)** Respublika shtabini FV to'g'risida darhol (5 daqiqa ichida) xabardor qilish;

**g)** milliy darajadagi xabardorlik axborotini tasdiqlash va tarqatishga ruxsat berish;

**d)** suv inshootlari holatini monitoring qilish va ularga oid ma'lumotlarni yangilab borish;

**e)** xalqaro tashkilotlar (Jahon meteorologiya tashkiloti, mintaqaviy gidrologiya markazlari) bilan axborot almashish.

## **8. Vazirlikning sel oqimlari va toshqin suvlarini talofatsiz o'tkazish bo'yicha Respublika shtabi:**

Respublika shtabi favqulodda vaziyatlarda yagona operativ boshqaruv markazini amalga oshiradi va quyidagilar uning asosiy vazifalari hisoblanadi:

**a)** Tizimdagi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va shtab majlislarini o'tkazish;

**b)** hududiy halokatli oqimlar xaritalarini yuritish va yangilash;

**v)** Favqulodda vaziyatlar vazirligi, mahalliy hokimliklar bilan to'g'ridan-to'g'ri operativ aloqani ta'minlash;

**g)** evakuatsiya rejalari bajarilishini nazorat qilish;

**d)** FV bartaraf etishga jalb etilgan kuchlar va vositalar holati to'g'risida Vazirlik rahbariyatiga tezkor hisobot berish;

**e)** xalqaro yordamni muvofiqlashtirish zarur bo'lganda bog'lovchi organ vazifasini o'tash.

## **9. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari**

Havza boshqarmalarining asosiy vazifalari:

**a)** o'z hududidagi suv sarfi ko'rsatkichlari, suv sathi va gidrologik o'zgarishlarni doimiy monitoring qilish;

**b)** xavf belgilari aniqlangandan keyin 5 daqiqa ichida Respublika shtabiga ma'lumot yetkazish;

**v)** havzadagi barcha gidrologik stansiyalar, suv o'lchov postlari va kuzatuv qurilmalarini ishchi holatda saqlash;

**g)** to'g'on va suv ombori xavfsizligi parametrlarini uzluksiz nazorat qilish.

#### **10. Suv xo'jaligi vazirligi axborot xizmati**

Axborot xizmati xabardorlik jarayonining axborot-kommunikatsiya bo'g'inini ta'minlaydi va asosiy vazifalari quyidagilar:

**a)** tasdiqlangan axborotni OAV, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarda tarqatish;

**b)** SMS xabarlar matni va formatini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun yuborish;

**v)** televideniye va radio kanallari bilan doimiy aloqa protokolini yuritish;

**g)** FV davomida soatlik axborot yangilanishlarini ta'minlash;

**d)** noto'g'ri ma'lumotlar va salbiy xabarlarni oldini olish maqsadida operativ yoritish ishlarini amalga oshirish;

**e)** FV bartaraf etilganidan so'ng jamoatchilikka rasmiy yakuniy hisobot tayyorlash.

### **4-bob. Xabardor qilish tizimi**

#### **11. Xabardor qilish darajalari**

<b>DARAJA</b>	<b>NOMI</b>	<b>MEZON</b>	<b>QABUL QILINADIGAN CHORA</b>
<b>1-DARAJA</b>	<b>DIQQAT (Sariq)</b>	Suv sathining me'yordan 20-30% oshishi; kuchli yomg'ir; drenaj tizimlarining ortiqcha yuklanishi	SMS va ijtimoiy tarmoq orqali ogohlantirishni yuborish; monitoring kuchaytirish

<b>2-DARAJA</b>	<b>XAVF (To‘q sariq)</b>	Suv sathining me’yordan 30-50% oshishi; sel toshqin xavfi yuqori; inshootlarga tahdid	Barcha kanallar orqali ogohlantirish; aholini evakuatsiyaga tayyorlanishga chaqirish
<b>3-DARAJA</b>	<b>FAVQULODDA HOLAT (Qizil)</b>	Suv sathining 50% dan ortiq oshishi; sel boshlanishi; to‘g‘on yoki inshoot yemirilish xavfi	Zudlik bilan evakuatsiya; barcha kanallardan uzluksiz xabar uzatish

### 5-bob. Xabardor qilish tartibi

**12. FV** yuz berganda Suv xo‘jaligi vazirligi rasmiy Telegram kanali (<https://t.me/TGminwater>) hamda hududiy mahalliy hokimliklarning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalar orqali tezkor xabar tarqatiladi.

#### 13. Xavf aniqlanganidan keyingi bosqichlar

Xabardorlik jarayoni quyidagi ketma-ket bosqichlarda amalga oshiriladi:

##### **1-BOSQICH: Xavf aniqlanganda (0–5 daqiqa)**

- Havza boshqarmasi yoki gidrologik monitoring stansiyasi tomonidan xavfli ko‘rsatkichlar qayd etiladi.
- Havza boshqarmasining navbatchi dispetcheri ma‘lumotni tekshirib, Vazirlikning Respublika shtabiga (24/7 ish tartibi) 5 daqiqa ichida yetkazadi.

##### **2-BOSQICH: Tasdiqlash va baholash (5–15 daqiqa)**

Respublika shtabi mavjud ma‘lumotlarning Xavf darajasini belgilaydi.

**Respublika shtabi navbatchisi** vazir yoki vazirning birinchi o‘rinbosarini zudlik bilan xabardor qiladi.

##### **3-BOSQICH: Tezkor xabarni tayyorlash**

Respublika shtabi navbatchisi mavjud ma'lumotlarni Axborot xizmatiga yetkazadi.

Axborot xizmati belgilangan shablon asosida xabar matnini tayyorlaydi.

Axborot xizmati boshlig'i tayyor bo'lgan xabarni Vazir yoki vazirning birinchi o'rinbosariga tasdiqlatish uchun yuboradi.

#### **4-BOSQICH: Tarqatish (3–15 daqiqa)**

Xabar tasdiqlangandan so'ng 3-daqiqadan 15 daqiqagacha bo'lgan vaqt ichida veb-sayt hamda bir vaqtda barcha ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarga joylashtiradi.

FV yuz bergan kunda har 30 daqiqada yangilangan ma'lumotlar aholiga yetkazib boriladi.

Vaziyat yaxshilangan yoki to'liq bartaraf etilgan holda «Xavf bartaraf etildi» xabari joylashtiriladi.

### **6-bob. Monitoring va javobgarlik**

**14.** Havza boshqarmalari doimiy ravishda suv sathi va gidrologik ko'rsatkichlar bo'yicha Respublika shtabiga taqdim etadi.

FV holatida har 2 soatda «Operativ axborot»ni Respublika shtabiga uzatadi.

**15.** FV bartaraf etilgandan so'ng 48 soat ichida «Dastlabki hisobot», 10 kun ichida «To'liq hisobot» taqdim etiladi.

### **7-bob. Yakuniy qoidalar**

**16.** Reglament har 3 yilda bir marta qayta ko'rib chiqiladi. Zarurat bo'lganda navbatdan tashqari tartibda yangilanishi mumkin.